

ALISHER NAVOIYNING BIZGA QOLDIRGAN ADABIY MEROSLARI

Muhriddin Oltiboyev Nazirali o'g'li

ISFT instituti (International school of finance and technology)

2-bosqich talabasi Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

Annotatsiya: Maqolada shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti va asarlari muhokama qilinadi. Bizgacha etib kelgan asarlari haqida.

Kalit so'zlar: Shoir, nazim, she'r, masjid, madras, din, mar'rifat, siyosat.

Kirish: Barcha oliyjanob ishlarimizda Navoiy g'oyalari, Navoiy ibrati, Navoiy ruhi bizga hamisha hamroh bo'lsin! Islom Karimov Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida marifatparvar, ma'naviyat va madaniyatning xaqiqiy namoyondasi sifatida ulug'langan buyuk shaxsdir. Yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganda, «Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning uslonidir» Arab tarixchisi Al-Boboniyning «Xadiyat ul — orifin» asarida keltirishicha, Mir Alisher 844 h.y. 18 ramazon / 1441-yil 9-fevral kuni Amir Temurning o'g'li Shoxrux Mirzo shoxligi davrida Hirotda tavallud togan. U yoshligidan ilmga chanqoq, iste'dodli bo'lib voyaga yetdi. Arab, fors va turk tillarida ijod qilgan buyuk mutafakkir, adib va davlat arbobi sifatida tarix zarvarqlaridan joy oldi. Zamondoshlari u kishi haqida ko'pincha «Nizomuddin Mir Alisher» deb yozadilar. Din diyonat nizomi degan ma'noni anglatadigan «Nizomuddin» so'zi donishmand mansab egalariga beriladigan sifat «mir» esa amir demakdir. Uning otasi Amir G'iyosuddin Muhammad (uni G'iyosuddin Kichkina» ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Yana bir manbada qayd etilishicha, Alisherning onasi amirzoda Shayx Abu Said Changni qizi bo'lib bobosi Amir Temurning o'gli Umarshayx bilan emikdosh aka-uka bo'lgan ekan. Navoiy o'z asarlarida oilasining Umarshayx xonadoniga yaqinligidan faxrlanishini bayon qiladi. Alisher Navoiy saroy muhitida yashaganligi uchun ham alohida tarbiya va nazorat ostida kamol topadi. Kichkinalik chog'ida she'r va musiqaga qiziqadi. O'sha davrning olim va fozil kishilari davrasida bo'ladigan ilmiy suhbatlarda ko'p ishtirok etadi. U bo'lajak sulton Xusayn Boyqaro bilan birga ta'lim olib, yoshligidanoq uning qadr don do'stiga aylanib qoladi. Alisher Navoiy yirik madaniy markazlardan biri Samarqandga 1466–1468 — yillarda kelib, mashxur olim, faqih Fazlulloh Abullays madrasasida ta'lim oladi. Bu ta'lim dargohida diniy, tasavvufiy va turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Samarqanddagi Shayxi Suxayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim kabi ko'plab taniqli shoirlar davrasida bo'lib ular bilan do'stlashadi.

Alisher Navoiy o'z hayotida ijodiy faoliyat bilan birga, davlat ishlarini olib borgan siyosiy arbobdir. U jamiyatda farovonlik va me'morchilikka juda katta e'tibor qaratib, davlat tomonidan 16 ko'prik, 20ga yaqin suv saqlash inshooti, 52 rabot va ko'pgina madrasa, masjid xonaqoh va hammomlar bino qurdirganligini tarixchi Xondamir o'z asarida keltirgan. Ularning orasida Hirotdagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoiya» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dor ul- huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi Mashhaddagi «Dor ul- huffoz» hayriya binosi va boshqa ko'pgina noyob me'morlik yodgorliklari bor. Alisher Navoiy xalqqa in'om va xayr- saxovat ko'rsatish maqsadida o'zining shaxsiy mulki xisobidan 4madrasa, 25dan ziyod masjid-xonaqoh va 50dan ziyod rabot va boshqa ko'pchilik foydalanadigan inshootlar bino qilgan. Alisher Navoiyning arab tilida ham qator salmoqli asarlar tasnif etganligi manbalarda bayon qilingan. Mumtoz arab tilining izohli lug'ati sifatida e'tirof etilgan va diniy tasavvufiy ruhda tuzilgan «Saba't ul- abhur» (« Yetti dengiz») nomli unga nisbat beriladigan asarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Ismoil Boshog' Bag'dodiy o'zining « Xadiyat ul- orifin fi asmo ul- muallifin va osor ul- musannifin» («Musanniflar asarlari va mualliflar ismlari haqidagi oriflar tuhfasini») kitobida Alisher Navoiyning barcha asarlarini birma bir ko'rsatib ularning qatorida «As-Sayf al-hodiy ala raqibat ul- munodiy» («Jamoani nazorat etishdagi o'tkir yo'l boshchilik») ham sanab o'tadi. XVII asrda yashab o'tgan tarixchi Hoji Halifaning «Kashf uz- zunun» kitobida ham bu asarning muallifi hazrat Navoiy ekanligi ko'rsatilgan. Hoji Halifa «Mu'in ul- muftiy» nomli manbada ham bu haqda ma'lumot berilganiga asoslanib «As — Sayf al — xodiy a'la raqibat ul —munodiy»ning haqiqatdan ham Alisher Navoiy ekanligini alohida takidlab o'tgan. Lekin hanuzgacha mazkur asarning mavjudligi va o'rganilganligi darajasi to'liq aniqlanmagan. Alisher Navoiy hadislarni nazmiy ifoda etishga bag'ishlab alohida «Arba'in» («Qirq hadis to'plami») nomli asar yozgan. O'rta asrlarda ijod qilgan ko'plab mutafakkirlarning ilmiy merosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning qirq hadisni jamlab ularga o'z tillarida nazmiy — nasriy sharxlar yozganligini ko'ramiz. Alisher Navoiy ham bu an'anani davom ettirib, «Arba'in»ni taklif etgan. Mazkur asarda Alisher Navoiy odob- axloq, haqiqiy diniy e'tiqod ilm, kasb — korga bo'lgan mehr muxabbat va odamiylik fazilatlariga ega bo'lgan komil insonni shakllantirishga xizmat qiluvchi qirq hadisning mazmunini nazmiy satrlarda ifoda etgan. Manbalarda keltirilishicha Alisher Navoiyni ushbu asarni yozishga undagan asosiy sabab payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning quyidagi so'zlari bo'lgan «Kimki mening hadislarimdan qirqtasini ummatlarimga yetkizish uchun yod olsa, qiyomat kuni men u kishini shafloatinga olaman.» Xazrat Navoiy bunga amaliy javob tariqasida qirq hadisni nazmiy bayon etgan. Quyida «Arba'in»dagi ba'zi hadislarni va ularning hazrat Navoiy ta'lifidagi nazmiy ifodasini keltiramiz. 1) «Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsani o'ziga birodariga ham ravo ko'rmaguncha mo'mini komil bo'la olmaydi» Mo'min ermasdur, ulki

imondin Ro'zg'orida yuz safo ko'rgay Toki qardoshig'a ravo ko'rmas Har nakim o'ziga ravo ko'rgay. 2) «Qo'lidan va tilidan o'zga musulmonlarga zarar yetmaydigan kishigina haqiqiy musulmondir» Kim musulmonlig' aylasa da'vo Chin ermas gar fido qilur jonlar Ul musulmon dururki, solimdur Tili-yu iligidin musulmonlar. 3) «Odamlarga rahmli bo'lmagan kishiga Allohning ham rahmi kelmaydi» Tengridin rahm agar tama' qilsang Avval o'lmoq keraksen elga rahim Har kishikim ulusqa rahm etmas Anga rahm aylamas rahimu karim 4) «Odamlarga foydasi ko'proq tegadigan kishi odamlarning eng yaxshirog'idur» Xalq aro yaxshiroq, deding kimdur? Eshitib, ayla shubha raf' andin Yaxshiroq bil oni ulus arokim Etsa ko'proq ulusqa naf' andin 5) «Ilinga baxillik qilinmaydi» Ey xirodmand olimeki, sanga Ilimdin ro'ziy ayladi sone' Kishi o'rgansa qilmag'il maxrum Yoki naf olsa bo'lmag'il mone' Xazrat Alisher Navoiy merosida ayniqsa uning «Arba'in» asarida komil insonga hos bo'lgan mehr-muhabbat, har-sahovat, himmat, muruvvat, sadoqat, vafodorlik, kamtarlik, odamiylik, oliyjanoblik, insonparvarlik, ilmga tashnalik, mo'min-musulmonlik kabi fazilatlar yorqin bayon qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008. Mangulikka muxirlangan mutafakkir. –T.:
2. A.Navoiy nomli HMK Islom ensiklopediyasi. –T.: O'zME Alisher Navoiy. Arba'in. –T.: «Mehnat» Основные термины (генерируются автоматически): HMK. Ключевые слова DIN, Shoir, nazim, she'r, masjid, madras, mar'rifat, siyosat II
3. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. Toshkent, 1983. 5-bet.
4. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961.
5. Mallayev N. O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1971-yil. 3-son.
5. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2001. 2-son. 2-10 betlar.
6. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. Tosheknt, 2001. 2-son. 2-10 betlar.
7. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007. 10-bet.